

OILADA OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARI

*Xursanov Omadbek Ulug‘bek o‘g‘li**Qo‘qon universiteti “Ta‘lim” kafedrasi o‘qituvchisi**Ashuraliyev Rahmonjon Soyibjon o‘g‘li**Qo‘qon universiteti Psixologiya(amaliy psixologiya)**yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya. Mazkur ilmiy ishda ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarning psixologik va ijtimoiy jihatlari o‘rganildi. Tadqiqotda bolaning qabul qilinishi, nazorat darajasi, simbioz (hissiy bog‘lanish), hamkorlik (kooperatsiya) va ota-onalarning bolaning muvaffaqiyatsizliklariga munosabati kabi muhim indikatorlar tahlil qilindi. Korrelatsion tahlil natijalariga ko‘ra, yashash joyi bilan bolani qabul qilish/rad etish o‘rtasida salbiy va statistik jihatdan ishonchli bog‘liqlik aniqlangan. Shuningdek, ota-onaning bolaning hayotiga kuchli hissiy bog‘liqligi (simbioz) ular tomonidan bolani ko‘proq nazorat qilishga olib kelishi mumkinligi aniqlandi. Boshqa ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqliklar esa zaif yoki ahamiyatsiz deb topildi.

Kalit so‘zlar: ota-ona va bola munosabatlari, psixologik nazorat, iliqlik, simbioz, kooperatsiya, qabul qilish va rad etish, farzand tarbiyasi, ijtimoiy omillar.

KIRISH. Oila – bu shunchaki qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog‘langan muassasa emas, balki jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti bo‘lib, inson shaxsining shakllanishida asosiy omillardan biridir. Tarbiya esa insonning ruhiy, ma‘naviy, axloqiy va ijtimoiy sifatlarini rivojlantirish jarayonidir. Aynan oila tarbiyaning boshlang‘ich maktabi, eng qudratli vositasi hisoblanadi. Har qanday jamiyatda shaxs kamoloti va unga xos qadriyatlarning shakllanishi, eng avvalo, oiladagi tarbiyaviy muhitga bevosita bog‘liqdir.

Oilada bola ilk bor insoniy munosabatlarni, axloqiy normalarni, ijtimoiy rol va vazifalarni o‘zlashtiradi. Bu bosqichda bola ota-onasining, yaqin qarindoshlarining xatti-harakatlarini, muomala uslubini, baho berish mezonlarini ichkilashtiradi. Agar oilada mehr-oqibat, hurmat va tushunish hukm sursa, bola ham bu qadriyatlarni o‘zlashtirib, sog‘lom, barkamol shaxs sifatida shakllanadi. Aksincha, oilada befarqlik, nizolar, beqarorlik hukm sursa, bu holatlar bolaning psixik rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar asrida oila oldida turgan vazifalar yanada murakkablashib bormoqda. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali yosh avlod ongiga begona g‘oyalar, noto‘g‘ri qadriyatlar singdirilayotgan bir paytda, aynan oila tarbiyaning asosiy tayanchi bo‘lib qolmoqda. Shu boisdan ham davlat siyosatida oilani mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash

masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, sog'lom oila – sog'lom jamiyat garovidir.

Ota-ona va farzand munosabatlarining ahamiyati

Farzand – bu nafaqat hayot davomchisi, balki ota-onaning ma'naviy aksidir. Ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar shunchalik sog'lom, mazmunli va ijobiy bo'lsa, bola shunchalik barqaror, o'ziga ishonchli va ijtimoiy faollikka ega shaxs sifatida voyaga yetadi. Aks holda, bu munosabatlardagi sovuqlik, befarqlik yoki haddan tashqari nazorat bola ruhiyatida stress, tushkunlik, ishonchsizlik va zo'ravonlik kabi salbiy holatlarni keltirib chiqaradi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z farzandi bilan ochiq, mehribon va tushunishga tayyor muloqotda bo'lgan ota-onalar bolalarda sog'lom ijtimoiy munosabatlarni, mas'uliyat, mustaqil fikrlash, o'zini ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday oilalarda o'sib voyaga yetgan bolalarda maktabdagi muvaffaqiyat, do'stlar bilan ijobiy aloqa, kelajakdagi mehnat faoliyatida barqarorlik ko'proq uchraydi.

Bugungi zamonaviy oilalarda aksariyat ota-onalar moddiy ehtiyojni qondirish bilan band bo'lib, farzand tarbiyasiga yetarli e'tibor bera olmayapti. Bu esa ota-ona va bola o'rtasidagi hissiy uzilishlarga, tushunmovchiliklarga va mas'uliyatli shaxs shakllanishining sekinlashishiga olib kelmoqda. Aynan shu nuqtada ota-onalarning tarbiyaviy savodxonligi, emotsional jihatdan mavjudligi va o'z farzandining ichki dunyosiga nisbatan sezgirligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, o'smirlik davrida farzand bilan mustahkam psixologik aloqa o'rnatish, uning muammolariga befarq bo'lmaslik, fikrlarini tinglash, tanqid o'rniga maslahat berish – sog'lom tarbiyaning kalitidir. Ota-onalar farzand tarbiyasiga doimiy e'tibor bilan yondashsalar, bu nafaqat shaxsiy baxt, balki ijtimoiy barqarorlik, milliy qadriyatlarning davomiyligi uchun xizmat qiladi.

Mamlakatimizda oila, oilaviy munosabat, yoshlar tarbiyasi masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Biroq yurtimizda yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishlari uchun hukumatimiz va Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan choratadbirlar hamda bu sohaga berilayotgan katta e'tiborga qaramay, o'smir-yoshlar o'rtasida giyohvandlik, jinoyatchilik, tartibbuzarlik kabi mentalitetimizga, etnik xususiyatlarimizga xos bo'lmagan illatlarning ko'payishi kuzatilmoqda.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev buyuk allomalarning ushbu fikrini keltirib o'tdilar: «Bola ota-ona qo'lida bir-omonatdir». Bolalarimiz, ularning taqdiri, kelajagi, haqiqatan ham, juda omonat ekanini bugungi hayot har tomonlama isbotlamoqda. Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-oilalarida-ota-ona-va-farzandlar-o-zaro-munosabatlarining-psixologik-xususiyatlari>

daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilmu hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas. Darhaqiqat, farzandga beriladigan tarbiya dastlab oila muhitida bajariladigan eng asosiy vazifadir. Farzandlar o'z uylarida kuzatgan ma'naviy muhitdan nusxa oladilar»². Bizning fikrimizcha ham ota-ona farzandlar tarbiyasi bilan doimiy ravishda qiziqib, uning xatti-xarakatlari bilan o'rtoqlashib, aloqalarni o'rnatib borishi ijtimoiy muhitdagi ijobiy munosabatlarga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining g 2018-yil 26-martdagi 230-son qarori "Oila institutini mustahkamlash sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha maxsus o'quv kurslari tashkil etish to'grisida"gi qarorida: "Quyidagilar maxsus o'quv kurslarining asosiy vazifalari etib belgilansin: yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal qilishning huquqiy va psixologik asoslarini o'rgatish, ajrashishlarning oldini olish hamda oiladagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish; oila institutini mustahkamlash, oilaning reproduktiv salomatligi va demografik rivojlanishi, uning farovonligi va xotirjamligini oshirish; er-xotin, ota-ona va farzandlar, er-xotin va ularning ota-onalari o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek zamonaviy oilaning namunali shaklini hamda "Oila jamiyat va davlat himoyasida" konstitutsiyaviy prinsipini keng targ'ib etish va jamiyatga singdirish; zamonaviy namunali oilaning mezonlarini belgilashda ishtirok etish, zamonaviy oilani rivojlantirish muammolari, oilaning ichki munosabatlari, shaxslararo munosabatlarni, boy madaniy tarixiy meros va an'anaviy oilaviy qadriyatlarni o'rganish; oila-nikoh munosabatlari sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro tajribani o'rganish; oila institutini rivojlantirish va uning zamonaviy shaklini joriy etish", -deya belgilanib qo'yilgan.³

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lishi»⁴ uni mustahkam himoyada ekanligini belgilab beradi. Jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan oilani tinchligi bu o'z navbatida davlat ravnaqining garovi hisoblanadi.

Oila insonning birinchi ijtimoiy muhitidir. Unda shakllanadigan munosabatlar, axloqiy qadriyatlar, hissiy aloqalar bola hayotining butun davriga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu bitiruv malakaviy ish doirasida olib borilgan ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar bolaning psixologik, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishining poydevori hisoblanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida oilaning tarbiyadagi roli yanada kuchaymoqda.

² <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9119>

³ <https://lex.uz/docs/-3598026>

⁴ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2019. – B. 21

Aynan oila orqali sogʻlom jamiyatni barpo etish, yoshlarni axloqiy barkamollikka yetaklash mumkin. Shu bois, ota-onalarning pedagogik va psixologik savodxonligini oshirish, tarbiya jarayonini ongli va masʼuliyatli tashkil etish zamon talabi boʻlib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet manbaalari

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: Oʻzbekiston, 2019. – B. 21
2. Gippenreyter, Y.B. (2013). Bolalar bilan qanday muloqot qilish kerak. Moskva: Eksmo nashriyoti.
3. Vygotskiy, L.S. (2003). Pedagogik psixologiya. Moskva: Pedagogika.
4. Nemov, R.S. (2001). Psixologiya: oʻqituvchilar uchun darslik. Moskva: VLADOS.
5. Boʻronov, M.M. (2020). Oila psixologiyasi. Toshkent: Yangi asr avlodi.
6. Ahmedova, M.N. (2018). Farzand tarbiyasi va oilaviy qadriyatlar. Toshkent: Maʼnaviyat.
7. Toʻxtayev, K. (2019). Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: Oʻqituvchi.
8. Qodirova, Z. (2016). Oilada axloqiy tarbiya muammolari. Toshkent: Fan.
9. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yilgi tahrir).
10. Oʻzbekiston Respublikasining Oila kodeksi (1998-yil 30-aprel).

Internet tarmogʻi boʻyicha veb-saytlar roʻyxati:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-oilalarida-ota-ona-va-farzandlar-o-zaromunosabatlarning-psixologik-xususiyatlari>
2. <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9119>
3. <https://lex.uz/docs/-3598026>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-oilalarida-ota-ona-va-farzandlar-o-zaromunosabatlarning-psixologik-xususiyatlari>